

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

## Doimiy aholi soni.

Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2017 yil 1 oktyabr holatiga 1795,9 ming kishini tashkil etib, 2017 yilning yanvar-sentyabr oylarida 19,2 ming kishiga yoki 1,1 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 598,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,3 %), qishloq aholisi soni 1197,4 ming kishini (66,7 %) tashkil etdi.

**E'tibor bering:**  
2017 yil yanvar-sentyabr

- Aholi soni **19,2 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **26,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **10,8 mingta nikoh** va **1,0 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Xorazm viloyat aholisining umumiyo'sishi (2017 yil yanvar-sentabr oylarida)

**Tirik tug'ilganlar**  
26,1 ming bola



**Vafot etganlar**  
6,0 ming kishi

**Ko'chib kelganlar**  
5,2 ming kishi




**Ko'chib ketganlar**  
6,0 ming kishi

Aholining  
umumiyo'sishi  
19,3  
ming kishi


## Demografik holat

### Tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2017 yil 1 oktyabr holatiga, ming kishi)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2017 yil 1 oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Xazorasp tumanida 238,3 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 13,3 %ni) va Urganch tumanida 189,2 ming kishini (10,5 %), aksincha eng kam aholi soni Yangibozor tumanida 83,8 ming kishi (4,7 %) va Yangiariq tumanida 111,3 ming kishini (6,2 %) tashkil etdi.

Tumanlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2016 yilning mos davriga nisbatan Urganch tumanida 2,2 %ni, Shovot tumanida 1,8 %ni, Bog'ot, Qo'shko'pir va Yangibozor tumanlarida 1,7%ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Gurlan tumani 1,4%ni va Urganch shaharida 0,4 %ni tashkil etdi.




## Demografik holat

**Tug'ilish.** 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 26,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,5 promilleni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,2 promillega kamaygan (2016 yilning yanvar-iyun oylarida 20,7 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan Gurlan (21,7 promilledan 19,1 promillega) va Yangiariq (19,6 promilledan 17,6 promillega) Xazorasp (22,2 promilledan 20,9 promillega) va Xonqa (21,1 promilledan 19,8 promillega) tumanlarida sezilarli kamayganli kuzatildi.

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bolsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



### Shahar va tumanlar bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi, yanvar-sentabr )

Qiz bolalar:

12,5 ming  
nafar

O'g'il bolalar:  
13,6 ming nafar

Shahar va tumanlar	2016 y	2017 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>27211</b>	<b>26066</b>	<b>95,8</b>
Urganch shahar	2085	2033	97,5
Xiva shahar	-	1209	
tumanlar:			
Bog'ot	2485	2403	96,7
Gurlan	2275	2026	89,1
Qo'shko'pir	2383	2273	95,4
Urganch	2595	2530	97,5
Xazorasp	3876	3713	95,8
Xonqa	2761	2638	95,5
Xiva	3274	1963	60,0
Shovot	2541	2528	99,5
Yangiariq	1596	1459	91,4
Yangibozor	1340	1291	96,3

**Vafot etganlar.** 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida 6,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2016 yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega oshdi (2016 yilning yanvar-sentabr oylarida 4,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2016 yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Bog'ot (4,5 promilledan 3,9 promillega) tumanida kuzatildi.

### Vafot etganlar



**Erkaklar:**  
3,2 ming  
kishi

**Ayollar:**  
2,8 ming  
kishi

### Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (kishi, yanvar-sentyabr )


Shahar va tumanlar	2016 y	2017 y	o'sish, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>5659</b>	<b>6027</b>	<b>106,5</b>
Urganch shahar	626	704	112,5
Xiva shahar	-	300	
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	518	521	100,6
Gurlan	464	482	103,9
Qo'shqo'pir	471	493	104,7
Urganch	566	598	105,7
Xazorasp	711	798	112,2
Xonqa	518	551	106,4
Xiva	667	405	60,7
Shovot	552	547	99,1
Yangiariq	315	342	108,6
Yangibozor	251	286	113,9

## Demografik holat

2017 yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,5 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,5 %i o'simtalardan, 6,7 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,2 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 3,7 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 14,9 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,5 ming nafarni tashkil etib, ularning 69,1%i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 10,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,0 %i tug'ma anomaliyalardan, 0,4%i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,3%i yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,8 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'llim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



**Tabiiy o'sish.** 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o'sishi 20,1 ming kishini tashkil etib, 2016 yil mos davriga nisbatan 1,4 ming kishiga (2016 yilning yanvarsentyabr oylarida 21,5 ming kishi bo'lgan) kamaygan.



Tabiiy o'sish:  
20,1 ming kishi

## Demografik holat

**Nikoh.** 2017 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 10,8 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2016 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bog'ot (113,5 %), Qo'shko'pir (111,5 %), Urganch (106,9 %), Gurlan (106,5 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### **Nikohdan ajralishlar.**

2017 yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2016 yilning mos davriga nisbatan ko'payish sur'atlari Qo'shko'pir (178,6%), Yangiariq (147,5 %), Bog'ot va Gurlan (131,6 %), tumanlariga va Urganch shahriga (134,4 %) to'g'ri kelmoqda.



### **Shahar va tumanlar bo'yicha nikohlar va ajrimlar soni (birlik, yanvar-sentabr)**



Shahar va tumanlar	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2016 yil	2017 yil	o'sish, %	2016 yil	2017 yil	o'sish, %
Viloyat bo'yicha jami	10348	10805	104,4	821	1011	123,1
Urganch shahar	862	928	107,7	151	203	134,4
Xiva shahar	-	400			37	
tumanlar:						
Bog'ot	889	1009	113,5	38	50	131,6
Gurlan	840	895	106,5	57	75	131,6
Qo'shko'pir	932	1039	111,5	56	100	178,6
Urganch	1 045	1117	106,9	110	126	114,5
Xazorasp	1 444	1511	104,6	88	122	138,6
Xonqa	1 205	1098	91,1	71	75	105,6
Xiva	1 002	671	67,0	98	47	48,0
Shovot	910	960	105,5	69	81	117,4
Yangiariq	682	636	93,3	40	59	147,5
Yangibozor	537	541	100,7	43	36	83,7

**Migratsiya.** 2017 yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,2 ming kishini , ko'chib ketganlar soni esa 6,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 0,8 ming kishi bo'lib, 2016 yilning mos davrida minus 0,1 ming kishi bo'lган.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2016 yil yanvar- sentabr	2017 yil yanvar- sentabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	4,5	5,2
<b>Ko'chib ketganlar</b>	5,4	6,0
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,9	-0,8

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Urganch tumani (plyus 1,0 ming kishi), Xazorasp tumani (minus 0,3 ming kishi), Gurlan tumani (minus 0,2 ming kishi) qayd etildi.